

O'ZBEKISTON TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY SHAHARLARNING ROLI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10802648>

Sarvar Nasrilloevich Abdurahimov

Termiz davlat universiteti Iqtisodiyot va turizm fakulteti

Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrasida o'qituvchisi

Annotasiya

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi turizmining hozirgi holati, turizmning jadal rivojlanishida tarixiy shaharlarning o'rni hamda shaharlardagi me'moriy joylar to'g'risida so'z yuritildi.

Kalit so'zlar

Turizm, O'zbekistondagi milliy va tarixiy shaharlar va joylar. Hozirda Respublikaning turizm sohasidagi o'rni.

Turizm sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, ko'plab mamlakatlar uchun katta daromad manbayoga aylanib bormoqda. Sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko'plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo'yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Afsuski, O'zbekiston bu sohada hali ancha orqada ekanligini ko'rish mumkin. Xususan, Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (BTSK) tomonidan berilgan bahoga ko'ra, O'zbekiston sayyohlar tashrifi bo'yicha dunyo mamlakatlari orasida 150-o'rinni egallaydi. Ammo achinarlisi shuki: O'zbekiston Markaziy Osiyoda oxirgi o'rinlarni egallaydi. Bu esa ko'ngilni xira qiladi. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida keng ko'lamlı ishlar amalga oshirilyapti. Sayyohlar oqimini yanada oshirish, ularni ohangraboddek jalb qilish uchun nima qilishimiz kerak? Qanday chora-tadbirlarni qo'llasak yurtimizdagi sayyohlar soni oldingi o'rinlarni egallaydi? O'zbekiston katta tarixiy-madaniy merosga – 7300 dan ortiq qadimiy-me'moriy va arxeologik obidalarga ega. Ularning ko'pchiligi Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termiz, Qo'qon va Toshkent shaharlarida joylashgan. Yurtimizdagi 200 dan ziyod tarixiy yodgorlik va obidalar YuNeSKOning madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan. Nahotki shuncha tarixiy va boy madaniy meroslarimiz

bo'la turib, ularni dunyoga tanita olmasak? Buning uchun bizda arzigulik va maqtagulik boy tarixiy merosimiz yetarli. Birgina Fransiyaning Parij shahriga yiliga 15 million sayyoh tashrif buyurar ekan. Biz esa har yili sayyohlar sonini sanashdan, o'tgan yildagidan biroz ko'paygan bo'lsa, uni baralla ovoza qilishdan nariga o'tmayapmiz. Nahotki yirik bir sayyohlik salohiyatiga ega davlat bo'la turib, bitta shaharchalik natijaga erisha olmasak?Ma'lumotlarga ko'ra, ayni paytda turizmning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 2 foizni tashkil etadi. Bu judayam past ko'rsatkich. Turizm faoliyatini amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni esa 433 tadan iborat.

Ma'lum bo'lishicha, o'zbekistonliklar mamlakat bo'ylab sayohatlarning deyarli yarmini to'rtta hududga amalga oshiradilar. Bular Toshkent va Toshkent viloyati, Buxoro va Samarqand shahri.Jumladan, Toshkent turizm mintaqasi kelgusida turizmning barcha turlarini rivojlantirish uchun universal imkoniyatlarga egadir. Mazkur turizm rayonidagi madaniyat yodgorliklari, poytaxt viloyatining bugungi hayoti, qurilishlar, yangi shahar va qishloqlar, zamonaviy madaniyat, mintaqaning tabiati, boy landshafti, rang-barang o'smlik va hayvonot dunyosi uning diqqatga sazovor bo'lishiga sabab bo'ladigan muhim omildir. Avtomobil va temir yo'llari tarmog'i Toshkent turizmi mintaqasidagi turizm markazlarini bir-biri bilan bog'laydi hamda shahar atrofidagi temir yo'l va avtomobil turizmini rivojlantirishga imkon beradi. Samarqand-Buxoro turizm mintaqasi Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarini o'z ichiga qamrab oladi. Samarqand va Buxorodagi butun dunyoga mashhur me'morchilik obidalari ushbu mintaqadagi turizmni rivojlantirilishiga asos hisoblanadi. Bundan tashqari, Zarafshon daryosi orqali o'tuvchi temir yo'l va keng tarmoqdagi shosse yo'llari, Zarafshon tog' tizmasi orqali o'tgan unchalik baland bo'lmagan dovonlar va yaxshi trassalar mintaqada turizmni rivojlantirish uchun g'oyatda qulay omil hisoblanadi. Xorazm turizm mintaqasining salohiyati asosan Xivaning Ichan qal'a qo'riqxonasida joylashgan va jahonda misli yo'q va g'oyatda boy tarixiy-me'morchilik yodgorliklariga tayanadi.

Hozirgi vaqtda butun dunyoda, jumladan O'zbekistonda ham iqtisodiyotining noishlab chiqarish sohasidan biri xususan turizm sohasiga katta e'tibor kuchayib bormoqda. Insonlar borgan sari o'zlarining bo'sh vaqtlarini samarali o'tkazishga, dam olishga, sog'ligini tiklashga, dunyoni, xalqlarning urf odatlarini, qadriyatlarini bilishga intilmoqda. Bundan tashqari, insoniyat har doim o'zining harakat doirasini o'zgartirib, yangi yerlarni kashf qilishga intilgan. XX asrga kelib bunday intilishlar kuchaydi va turizm industriyasining rivojlanishiga katta turtki bo'ldi. O'tgan 2004 yilda dunyo aholisining har to'rtinchisi sayohat qilganlar. Ayrim mamlakatlarda

turizm sohasi juda ham barqaror rivojlanib bormoqda va ularning har yillik o'sish sur'ati 8-10 % gacha boradi. Bu davlatlarga Ispaniya, Italiya, Fransiya, AQSH va boshqa mamlakatlarni kiritish mumkin. Shunisi qiziqki turizm rivojlanishi bilan bir qatorda transport, bozor infratuzilmasi, savdo sotiq, oziq-ovqat tarmoqlari, qurilish, hunarmandchilik hamda boshqa xizmat ko'rsatish sohalari rivojlanib ketadi. Respublikamiz xalqaro turizmni rivojlantirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Bularga «Buyuk Ipak Yo'li»ning shox tomiri respublikamizdan o'tganligi, butun dunyoga mashhur tarixiy va madaniy shaxarlarimiz Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Qo'qon, Toshkent va boshqa shaharlar, tabiiy va sog'lomlashtirish resurslariga boy mintaqalarimiz Chimyon, Shoximardon, Zomin, Boysun, SHerobod va boshqa shaharlar kiradi.

Ma'lumki davlatimiz O'zbekiston o'zining ko'plab tarixiy-me'moriy yodgorliklari, turfa xil iqlimi va tez sur'atlarda rivojlanishi bilan butun dunyo diqqatini o'ziga tortmoqda. Asrlar mobaynida O'zbekiston Buyuk ipak yo'lining savdo, savdogarlar va sayohatchilar, jo'g'rofiyashunoslar va missionerlar, isti'lochilar va zabt etuvchilarning yo'lida joylashgan edi. Ayni paytda esa, O'zbekiston tashabbuskor, madaniyat, tarix, an'ana va ekzotik mamlakatlarga qiziquvchilar uchun maftunkor sayyohlik yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. O'zbekiston ajdodlardan bugungi kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklari bilan faxrlanadi. Xivadagi Ichan-Qala majmuasi, Buxorodagi tarixiy markazlar, Shahrisabz va Samarqand shaharlari UNESCO ning "Butun dunyo me'rosi" ning maxsus ro'yxatiga kiritilgan. Bu shaharlardagi takrorlanmas yodgorliklar va me'moriy inshootlar o'tmish zamonlarni o'zida aks ettirib, mamlakat tarixida katta rol o'ynaydi. O'zbekistonga tashrif buyuruvchilar uning ko'pi Samarqandni ko'rmas ketmaydi. Asrlar mobaynida O'zbekiston shaharlari Buyuk ipak yo'li va qadimiy transkontinental magistral hayotida muhim rol o'ynadi. Birgina Samarqand esa "Buyuk Ipak yo'lining yuragi" deb nom olgan. Jumladan, Toshkent ham asosiy turistlar markazi hisoblanadi. Toshkent - O'zbekistonning poytaxti va Markaziy Osiyodagi eng katta shaharlardan biri. O'zbekistonda o'tmishdagidek hozirgi paytda ham Toshkent o'zimizning O'zbekiston Havo Yo'llari va xalqaro aviakompaniyalar yordamida xalqaro transport yo'nalishlarining chorrahasidir. Qadimdan Buxoro vohaning zich aholiga ega markazi bo'lib kelmoqda. Uning yoshi 2500 da. Qulay muhit va 140 dan ortiq qadimiy me'moriy yodgorliklarni saqlab qolgan Buxoro sayyohlarning eng sevimli joylaridan biri bo'lib qolaveradi. Buyuk ipak yo'li davridan buyon butunlay saqlanib qolgan shahar Xivadir. U "ochiq osmon ostidagi muzey" deb nomlanadi. Sharqona bozorlar haqidagi an'anaviy tasavvurlar; to'kin-sochinlilik,

xushmanzaralilik, shovqunlilikni O'zbekiston bozorlarida yaqqol ko'rish mumkin. Yaxshi bozor maxsulotlar bilan to'lib toshishi, rang barang, baland ovoz va hayqiriqlar eshitilib turilishi, savdolashish bo'lishi kerak.

Mevalar va sabzavotlar rastasi oldidan o'tayotgan har qanday odam mo'l-ko'llikdan va rangbaranglikdan hayratda qoladi. Sharq bozorlari ayniqsa yoz va kuzda hayratlanarli tusga kiradi. Bozorning qizg'in hayoti erta tongda boshlanib kech tushganda tugaydi. Savdogarlarning mijozlarni chaqirishi, avtomabillar shovqini, milliy musiqa ovozi, zirovorlar isi va qovurilgan go'sht hidi, rastalardagi rang-barang mevalar va sabzavotlar sharqona bozorning takrorlanmas jozibasini yaratadi.

Qadimdagi karvonsaroylar o'rnini zamonaviy qulay mehmonxonalar egalladi. Sayyohlik hududlarda joylashgan mejmonxonalar har qanday mehmonning talabini qondirishi mumkin. Yagona "qiyinchilik" didga mos keluvchi dizayn yoki komfortni tanlashda bo'lishi mumkin. Yevropa uslubini hush ko'ruvchilar uchun zamonaviy interyerlarga ega mexmonxonalar, aksincha sof ma'nodagi sharqona muhitni hohlovchilarga esa o'zining naqshli eshiklari, rang-barang gilamlardan tortib sharqona ayvonlargacha ega bo'lgan mexmonxonalar ham muhayyodir. Toshkent, Samarqand, Buxoro va Urganch kabi katta shaharlardagi birinchi darajali mehmonhonalardan foydalanishingiz mumkin. Hozirgi kunda O'zbekistonda 350 dan ortiq mehmonxonalar sayyohlarni qabul qilib xalqaro standartlarga mos ravishda xizmatlar ko'rsatmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Sherzod Ibroimo'g'li Ibroimov va Saida Zunnunovna Mirzarahimova (2021). "GEOGRAFIK NOMLARNING YOZILISHI VA TRANSKRIPSIYASI".
2. Sharof Muhiddinov, Sardor Berdimurodov, Toshkent. 2000.
3. To'raqulov Yo'ldosh, Berdiyeva Nargiza, Toshkent. 1996.
1. Tukhtamurodov, A., Sobirov, Y., Toshaliyeva, S., Ibrayimova, D., & Feruz, M. (2024). Determinants of CO2 emissions in the BRICS. A dynamic Panel ARDL approach. In BIO Web of Conferences (Vol. 82, p. 06002). EDP Sciences.
2. Тошалиева, С. (2023). HUDUD KICHIK TADBIRKORLIK SALOHİYATI NATIJAVIYLIGINI IJTIMOYIY-IQTISODIY BAHOLASH USULLARI VA MEZONLARI. Economics and Innovative Technologies, 11(6), 163-177.
3. Тошалиева, С. (2023). KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOYIY-IQTISODIY MOHIYATI. ИЖТИМОЙИ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ

долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(12/1).

4. Toxirovna, T. S. (2024). THE SOCIO-ECONOMIC IMPORTANCE OF ENTREPRENEURSHIP. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 7(1), 316-318.

5. Tokhirova, T. S., & Khasanovich, J. E. (2024). THE NEED AND DIRECTIONS OF ENTREPRENEURSHIP SUPPORT. IMRAS, 7(2), 115-117.

6. Toxirovna, T. S. (2024). BUSINESS CONDITIONS AND THEIR IMPORTANCE. IMRAS, 7(1), 722-722.

7. Toxirovna, T. S. (2024). STEPS TO START A BUSINESS. IMRAS, 7(1), 718-720.

8. Toxirovna, T. S., & O'ralovna, K. M. (2023). KICHIK TADBIRKORLIK RIVOJLANISHI SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 471-475.

9. Toxirovna, T. S., & Omonovna, Y. G. (2023). KICHIK TADBIRKORLIK FAOLIYATI IJTIMOY-IQTISODIY SAMARADORLIGI KO'RSATKICHLARINI BAHOLASH BO'YICHA YONDASHUVLAR. JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY BULLETIN, 6(5), 476-480.

10. Xurramova, Z., Toshaliyeva, S., & Turovov, J. (2007). Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Qarshi:«Nasaf» nashriyoti.

11. Toshaliyeva, S. T. (2020). SOME QUESTIONS ABOUT THE IMPACT OF THE DIGITAL ECONOMY ON THE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURSHIP. Экономика и социум, (7 (74)), 63-69.

12. Хатамов, О., & Тошалиева, С. (2021). СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ КИЧИК ТАДБИРКОРЛИК САЛОҲИЯТИ НАТИЖАВИЙЛИГИНИ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ БАҲОЛАШ УСУЛЛАРИ ВА МЕЗОНЛАРИ. Iqtisodiyot va ta'lim, (4), 215-224.

13. Хатамов, О., & Тошалиева, С. (2021). Методы и критерии социально-экономической оценки потенциала малого бизнеса в сурхандарьинской области. Экономика И Образование, (4), 215-224.

14. Тошалиева, С. Т. (2023, July). КИЧИК ТАДБИРКОРЛИК ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ХАЖМИНИ БАҲОЛАШДА ДИНАМИК ЭКОНОМЕТРИК МОДЕЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ. In " CANADA" INTERNATIONAL CONFERENCE ON DEVELOPMENTS IN EDUCATION, SCIENCES AND HUMANITIES (Vol. 9, No. 1).

15. Тошалиева, С. (2022). ХУДУДИЙ КИЧИК ТАДБИРКОРЛИК ФАОЛИЯТИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИНИ ПРОГНОЗЛАШ:

https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a33. Iqtisodiyot va ta'lim, 23(3), 220-227.

16. Toshaliyeva, S. (2023). Forecasting the prospects for the development of regional small business. In E3S Web of Conferences (Vol. 449, p. 03003). EDP Sciences.

17. Nasrilloevich, A. S., & Suyun o'g'li, C. A. (2024). THE ROLE OF ECOTOURISM IN THE DEVELOPMENT OF THE TOURISM SECTOR IN THE COUNTRY. PEDAGOGS, 50(1), 25-29.

18. Abdurahimov, S. N. (2023). IMPROVING THE ACTIVITIES OF TOURIST ENTERPRISES. IMRAS, 6(8), 207-210.

19. Nasrilloevich, S. A. (2023). ORGANIZATION OF FESTIVALS AND FAIRS IN UZBEKISTAN, INTERNATIONAL INTEGRATION AND DEVELOPMENT OF TOURISM. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11).

20. Nasrilloevich, A. S., & Suyun ogli, C. A. (2023). MAMLAKATDA TURIZM SOHASINI RIVOJLANISHIDA EKOTURIZMNING O'RNI. PEDAGOGS, 48(2), 44-48.

21. Nasrilloevich, S. A. (2022). MAMLAKAT TURIZMIGA XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH VA ISHBILARMON SAYYOHLAR OQIMINI KO'PAYTIRISHDA MICE TURIZIMINING ROLI. Архив научных исследований, 2(1).

22. Adxamovna, M. G. (2023). EFFICIENCY OF USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH LANGUAGE. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 35(6), 136-142.

23. Adxamovna, M. G. (2023, December). OG 'ZAKI NUTQ IFODALASHGA XIZMAT QILUVCHI LISONIY (FONETIK, LEKSIK, GRAMMATIK) VOSITALARNING XUSUSIYATLARI. In Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies (Vol. 2, No. 12, pp. 274-280).

24. Madraximova, G. (2023, November). SUN'IY INTELLEKTNING ZAMONAVIY HAYOTIMIZDAGI O'RNI. In Conference on Digital Innovation: "Modern Problems and Solutions".